

Yechish algoritmi:

Ichida aylanasi bo‘lgan kvadrat shakl (*shartli ravishda: sirtidagi – asosiy; ichidagi - ikkinchi darajali shakl deb ataymiz*) – ichida aylantirilgan kvadrati bor aylana shakliga o‘zgargani kabi $(A \leftrightarrow B)$, ichida kvadrati bor uchburchak – ichida aylantirilgan uchburchagi bor kvadratga aylanadi $(a \leftrightarrow b)$. Shtrixlar esa ikkilamchi shakl ichidan ikkilamchi shakl tashqarisiga chiqadi. Asosiy shaklga tutash xuddi qo‘llar kabi “kirgizilgan” uchta to‘g‘ri to‘rtburchak esa 180° burchak ostida harakat qilib, shtrix hoshiyalilari ko‘k rangga o‘tgani kabi, ko‘k ranglilari shtrix hoshiyali rangga aylanishi lozim. Demak, a shaklning hatti-harakatlarini kuzatib, b shaklni topish mumkin. Topshiriqning to‘g‘ri javobi 2-raqam ostida berilgan.